



KINOYAVIY MA'NO IFODALOVCHI LEKSIK-FRAZEOLOGIK VA SINTAKTIK KO'RSATKICHLAR

Salohiddinova Muslima Qahramon qizi,
I kurs magistrant
salohiddinovamuslimakhon267@gmail.com
ToshDO'TAU

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida kinoyaviy ma'noni ifodalovchi leksik, frazeologik va sintaktik ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Kinoya nutqda ijobiy shakldagi birliklar orqali salbiy, tanqidiy yoki istehzoli munosabatni yashirin tarzda ifodalovchi muhim stilistik vosita sifatida qaraladi. Maqolada leksik birliklarning teskari ma'no hosil qilishi, frazeologik iboralarning obrazli tanqidni yuzaga chiqarishi hamda ritorik so'roq gaplarning sintaktik vosita sifatida kinoyaviy ma'noni kuchaytirish xususiyatlari yoritiladi. Amaliy misollar asosida kinoyaviy ma'noning matn(kontekst)da, nutq vaziyati va so'zlovchining muloqot maqsadi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari kinoyaning o'zbek tilidagi uslubiy, semantik va pragmatik imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *kinoya, ironiya, leksik ko'rsatkich, frazeologik birlik, sintaktik ko'rsatkich, ritorik so'roq gap, teskari ma'no, istehzo, uslubiy vosita, pragmatik ma'no.*

Kirish. Tilda kinoya (ironiya) – matn yoki nutqda tashqi jihatdan ijobiy, maqtov yoki neytral ko'rinishga ega bo'lgan so'z va ifodalar orqali aslida salbiy, tanqidiy, istehzoli yoki norozilik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladigan kuchli uslubiy vosita hisoblanadi [3:45]. Kinoya oddiy baholash yoki ochiq tanqiddan farqli ravishda yashirin ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Unda so'zlovchi o'z munosabatini bevosita emas, balki bilvosita, ko'pincha qarama-qarshi ma'no hosil qilish orqali ifodalaydi. Shu sababli kinoyaviy ma'noni to'g'ri anglash uchun faqat so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilish yetarli emas, balki matnning umumiy mazmuni, nutq



vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, matn ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kinoyaviy ma‘noni yuzaga chiqarishda leksik, frazeologik va sintaktik birliklar o‘ziga xos ko‘rsatkich vazifasini bajaradi. Leksik birliklar orqali so‘zlovchi ma‘lum bir shaxs, hodisa yoki vaziyatga nisbatan baholovchi munosabatini yashirin tarzda bildiradi. Masalan, tashqi tomondan maqtovga o‘xshagan ayrim so‘zlar matnda tanqid, norozilik yoki masxara ma‘nosini anglatishi mumkin. Frazeologik birliklar esa kinoyaviy mazmuni yanada obrazli va ta‘sirchan ifodalash imkonini beradi. Bunday birliklar xalqona tafakkur, madaniy tajriba va ijtimoiy baholash mezonlari bilan bog‘liq bo‘lgani uchun kinoyaning emotsional-ekspressiv kuchini oshiradi. Sintaktik birliklar, xususan, ritorik so‘roq gaplar, undov gaplar, takrorlar, zid qo‘yishlar va kesatq ohangidagi gap qurilmalari kinoyaviy munosabatni ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kinoya nutqda tinglovchi yoki o‘quvchiga ta‘sirni kuchaytirish, muayyan hodisa yoki shaxsga nisbatan salbiy munosabatni yashirin shaklda bildirishga xizmat qiladi [4:78]. Ayniqsa, badiiy matn, publitsistik nutq, og‘zaki muloqot va ijtimoiy tarmoqlar tilida kinoya muallif yoki so‘zlovchining subyektiv bahosini ifodalovchi samarali usullardan biri sifatida qo‘llanadi. Kinoya yordamida muallif o‘z fikrini ochiq aytmasdan turib, o‘quvchini muayyan xulosaga olib keladi, tasvirlanayotgan voqea-hodisaning ichki ziddiyatini ko‘rsatadi, hamda nutqning ta‘sirchanligini oshiradi. Shu jihatdan kinoyani o‘rganish nafaqat stilistika(uslubshunoslik), balki semantika, pragmatika va diskurs tahlili uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

1. Kinoyaviy ma‘no ifodalovchi leksik ko‘rsatkichlar. Leksik sathda kinoya ko‘pincha so‘zning odatdagi lug‘aviy ma‘nosiga zid bo‘lgan matnda qo‘llanishi orqali yuzaga keladi. Bunda tashqi jihatdan ijobiy baho bildiruvchi so‘zlar aslida salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Ya‘ni so‘zning bevosita ma‘nosi bilan matndagi pragmatik ma‘nosi o‘rtasida qarama-qarshilik paydo



bo'ladi. Aynan shu ziddiyat kinoyaviy ma'noni hosil qiladi [1:112]. Bunday holatda so'zlovchi tanqidiy fikrni ochiq aytmaydi, balki uni maqtov, e'tirof yoki minnatdorlik shaklida yashirin tarzda bildiradi.

Kinoyaviy ma'no ifodalovchi leksik birliklar orasida “barakalla”, “qoyil”, “zo'r”, “ajoyib”, “tasanno”, “dono”, “zukko”, kabi ijobiy baho bildiruvchi so'zlar faol uchraydi. Odatda bu so'zlar kishining qobiliyati, aqli, mehnati yoki natijasini maqtash uchun ishlatiladi. Ammo ular salbiy vaziyatda, muvaffaqiyatsizlik, xato, mas'uliyatsizlik yoki noo'rin harakat bilan bog'liq matnda qo'llansa, o'zining asl ijobiy ma'nosidan chekinib, teskari – tanqidiy va istehzoli ma'no kasb etadi. Demak, kinoyaviy ma'no so'zning o'zidan emas, balki uning qanday nutqiy vaziyatda va qanday munosabat bilan ishlatilishidan kelib chiqadi.

Masalan, “barakalla” yoki “qoyil” so'zlari odatda maqtov, rag'bat yoki e'tirof ma'nosini bildiradi. Biroq quyidagi jumlada ular teskari ma'noda ishlatilgan: “Vazifani shunchalik ‘zo'r’ bajardingki, qoyil qolmasdan iloj yo'q!” Ushbu gapda “zo'r” va “qoyil” so'zlari vazifaning haqiqatan ham yaxshi bajarilganini emas, aksincha, uning talab darajasida bajarilmaganini ifodalaydi. So'zlovchi vazifaning sust yoki noto'g'ri bajarilganini bevosita aytmay, tashqi tomondan maqtovga o'xshagan birliklar orqali tanqidiy munosabat bildiradi. Natijada ijobiy baho bildiruvchi leksik birliklar salbiy baho ifodalovchi kinoyaviy vositaga aylanadi.

Xuddi shunday, “dono” va “zukko” so'zlari ham asl ma'nosida aqlli, fahmli, tez tushunadigan shaxsga nisbatan qo'llanadi. Ammo ular matnda salbiy ma'noda ishlatilganda kishining aqliy ustunligini emas, balki ojizligi, noto'g'ri qaror qilgani yoki vaziyatni tushunmaganini kinoya bilan ifodalaydi. Masalan: “Bu masalani hal qila olmagan ‘zukko’ do'stimizga rahmat.” Bu jumlada “zukko” so'zi o'zining haqiqiy ijobiy ma'nosida emas, balki teskari ma'noda qo'llangan. So'zlovchi “do'stimiz masalani hal qila olmadi” degan ochiq tanqid o'rniga “zukko” so'zini kinoyaviy tarzda ishlatib, uning bilimsizligi yoki ojizligini ta'kidlamoqda [3:85].



Shunday qilib, leksik sathdagi kinoya ko‘pincha baholovchi so‘zlarning matnda teskari ma‘no kasb etishi orqali yuzaga chiqadi. Bunda so‘zning lug‘aviy ma‘nosi bilan real nutqiy maqsad o‘rtasidagi nomuvofiqlik asosiy belgi hisoblanadi. Ijobiy bo‘yoqdor so‘zlarning salbiy vaziyatda qo‘llanishi nutqda kesatiq, istehzo va yashirin tanqidni kuchaytiradi. Shu jihatdan leksik ko‘rsatkichlar kinoyaviy ma‘noni aniqlashda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi.

2. Kinoyaviy ma‘no ifodalovchi frazeologik ko‘rsatkichlar. Frazeologik birliklar nutqqa emotsional-ekspressiv bo‘yoq berish bilan birga, kinoya, istehzo, kesatiq va yashirin tanqidni ifodalashda ham muhim vosita hisoblanadi [10:102]. Oddiy so‘zlardan farqli ravishda iboralar tayyor til birligi sifatida qo‘llanadi va ko‘pincha obrazlilikka ega bo‘ladi. Shu sababli ular nutqda faqat ma‘lumot berish vazifasini bajarmaydi, balki so‘zlovchining bahosi, munosabati va emotsional holatini ham ifodalaydi. Ayniqsa, salbiy baho yoki tanqidiy munosabatni ochiq aytmasdan, obrazli va ta‘sirchan shaklda yetkazishda frazeologik birliklarning o‘rni katta.

Kinoyaviy ma‘no ifodalovchi frazeologik birliklar ko‘pincha insonning xarakteri, xatti-harakati, ijtimoiy munosabati yoki muayyan vaziyatdagi tutumini baholash uchun ishlatiladi. Bunday iboralar tashqi tomondan oddiy tasvirga o‘xshasa-da, aslida shaxsning mas‘uliyatsizligi, ayyorligi, befarqligi, xudbinligi yoki noo‘rin harakatini tanqid ostiga oladi. Frazeologik birliklarning kinoyaviy kuchi shundaki, ular ma‘noni bevosita emas, balki obrazli ifoda orqali beradi. Natijada nutq yanada ta‘sirchan, esda qolarli va baholovchi xarakter kasb etadi.

Masalan, “suvdan quruq chiqmoq” iborasi odatda biror ayb, xato yoki noxush vaziyatdan zarar ko‘rmasdan, javobgarlikdan qutulib qolish ma‘nosini bildiradi. Bu ibora kinoyaviy matnda ishlatilganda shaxsning o‘z aybini tan olmasligi, javobgarlikdan qochishi yoki aybni boshqalarga yuklashi tanqid qilinadi. “U hamma xatoni boshqalarga yuklab, yana suvdan quruq chiqdi” jumlasida mazkur ibora oddiy



holatni tasvirlash uchun emas, balki kishining nohaq tarzda jazodan yoki tanqiddan qutulib qolganini istehzo bilan ifodalash uchun qo'llangan [2:55]. Bu yerda so'zlovchi shaxsning qilmishiga nisbatan salbiy munosabatini ibora orqali yashirin, ammo ta'sirchan shaklda bildiradi.

Yana bir muhim frazeologik ko'rsatkich – “dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi” iborasidir. Bu ibora o'ziga to'q, beparvo, boshqa odamlar tashvishi yoki muammosiga loqayd bo'lgan shaxsga nisbatan ishlatiladi. Unda insonning atrofdagi voqea-hodisalarga befarqligi obrazli tarzda ifodalanadi. Bunday qo'llanishda ibora shaxsni oddiygina “befarq” deb atashdan ko'ra kuchliroq ta'sirga ega bo'ladi, chunki unda muammoning kattaligi bilan shaxsning unga nisbatan loqaydligi o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi. Shu orqali kishining mas'uliyatsizligi va xudbinligi kinoyaviy tarzda tanqid qilinadi [10:114].

Frazeologik birliklarning kinoyaviy ma'no hosil qilishida matn muhim ahamiyatga ega. Chunki bir ibora turli nutqiy vaziyatlarda turlicha baholovchi ma'no kasb etishi mumkin. Agar ibora salbiy hodisa, noo'rin harakat yoki tanqidiy vaziyat bilan bog'liq holda qo'llansa, unda kinoyaviy ma'no kuchayadi. Masalan, “suvdan quruq chiqmoq” iborasi aybni yashirish yoki javobgarlikdan qochish holatida ishlatilganda istehzoli bahoni bildiradi. “Dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi” iborasi esa insonning befarqligi yoki xudbinligini fosh etishda kinoyaviy vosita vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, frazeologik ko'rsatkichlar kinoyaviy ma'noni ifodalashda leksik birliklarga qaraganda yanada obrazli va ta'sirchan imkoniyatga ega. Ular nutqda yashirin tanqid, istehzo va salbiy bahoni kuchaytiradi, shuningdek, shaxs yoki vaziyatga nisbatan muallif munosabatini aniqroq namoyon qiladi. Frazeologik birliklarning bunday xususiyati ularni kinoya ifodasining muhim lingvistik vositalaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

3. Kinoyaviy ma’no ifodalovchi sintaktik ko’rsatkichlar. Sintaktik qurilmalar ichida, xususan, ritorik so‘roq gaplar kinoya va istehzoni ifodalashda juda faol qo‘llaniladi. Ritorik so‘roq gaplar tashqi shakliga ko‘ra so‘roq gap bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi javob olish emas, balki muayyan fikrni ta’kidlash, baholash yoki tanqidiy munosabatni bildirishdan iboratdir [5:120]. Bunday gaplarda so‘roq shakli nutqning ta’sirchanligini oshiradi, tinglovchi yoki o‘quvchini fikrlashga undaydi hamda aytilayotgan hukmning kuchliroq qabul qilinishiga xizmat qiladi.

Kinoyaviy ma’no ifodalovchi ritorik so‘roq gaplarda odatda shakl va mazmun o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatiladi. Ya’ni gap grammatik jihatdan savol tarzida tuziladi, ammo semantik jihatdan u tasdiq, inkor, tanqid yoki istehzo ma’nosini bildiradi. So‘zlovchi bunday gaplar orqali o‘z fikrini bevosita hukm ko‘rinishida emas, balki savol shaklida ifodalaydi. Natijada nutqda yashirin tanqid, kesatq va baholovchi munosabat kuchayadi. Ayniqsa, kundalik muloqotda, badiiy matnlarda va publitsistik nutqda ritorik so‘roq gaplar kinoyaviy ifodaning samarali vositasi sifatida keng qo‘llanadi.

Masalan, “Shu ham gap bo‘ldimi endi?” jumlasida shaklan so‘roq gap hisoblanadi. Biroq u real javob talab qilmaydi. Bu gap orqali so‘zlovchi aytilgan fikrni mazmunsiz, arziyasiz yoki noo‘rin deb baholaydi. Demak, mazkur sintaktik qurilma aslida “bu gap emas”, “bu fikr jiddiy emas” yoki “bunday fikrni aytish o‘rinli emas” degan yashirin hukmni ifodalaydi. Shu sababli gapning so‘roq shakli uning kinoyaviy kuchini oshiradi va tinglovchiga nisbatan tanqidiy munosabatni bilvosita yetkazadi.

1-jadval. Kinoyaviy ma’no ifodalovchi lingvistik ko’rsatkichlar

Ko’rsatkich turi	Asosiy xususiyati	Kinoyaviy vazifasi	Misol
Leksik ko’rsatkichlar	So‘zning lug‘aviy ma’nosiga zid kontekstda qo‘llanishi	Teskari baho, yashirin tanqid va istehzo hosil qiladi	“Zo‘r ish qilibsan!”
Frazeologik ko’rsatkichlar	Tayyor iboralar orqali obrazli ma’no ifodalashi	Shaxs yoki vaziyatga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytiradi	“Suvdan quruq chiqdi”
Sintaktik ko’rsatkichlar	Gap qurilishi orqali baholovchi munosabat ifodalashi	Ritorik savol, e’tiroz yoki kesatq orqali kinoya hosil qiladi	“Shu ham gap bo‘ldimi?”



Yana bir misol sifatida “Buni hamma bilmaydimi deysiz?” gapini ko‘rsatish mumkin. Bu gap ham tashqi tomondan savol shaklida berilgan bo‘lsa-da, aslida ma‘lumotning hammaga ma‘lum ekani, uning sir yoki yangilik emasligi ta‘kidlanmoqda. So‘zlovchi bu yerda oddiy haqiqatni bilmaslik yoki uni yangilik sifatida taqdim etishni istehzo bilan baholaydi. Mazkur gapning kinoyaviy ma‘nosi shundan iboratki, unda savol orqali “buni hamma biladi” degan qat‘iy hukm ifodalanadi. Natijada so‘roq shakli gapga tanqidiy va istehzoli ohang beradi.

Ritorik so‘roq gaplarning kinoyaviy ma‘no hosil qilishida ohang, matn va nutq vaziyati muhim o‘rin tutadi. Bir xil sintaktik shakl turli matnlarda turlicha ma‘no berishi mumkin. Masalan, “Shu ham gap bo‘ldimi?” jumlasida ba‘zi holatlarda oddiy hayratni bildirishi mumkin, lekin salbiy baho yoki norozilik bilan aytilganda kinoyaviy ma‘no hosil qiladi. Xuddi shuningdek, “Buni hamma bilmaydimi deysiz?” gapida ham ma‘lumotga nisbatan bepisandlik, istehzo yoki tanqidiy munosabat matn orqali aniqlanadi. Shuning uchun sintaktik ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda faqat gap tuzilishiga emas, balki uning kommunikativ vazifasi va pragmatik ma‘nosiga ham e‘tibor berish zarur.

Shunday qilib, ritorik so‘roq gaplar kinoyaviy ma‘no ifodalovchi muhim sintaktik vositalardan biridir. Ular so‘zlovchiga tanqidiy munosabatni bevosita emas, balki savol shakli orqali yashirin va ta‘sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi. Bunday gaplarda javob talab qilinmaydi, aksincha, ma‘lum bir hukm kuchaytiriladi yoki tinglovchining fikriga baho beriladi. Shu jihatdan ritorik so‘roq gaplar kinoya, istehzo va kesatiqning sintaktik ifodalanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Kinoyaviy ma‘no ifodalovchi leksik, frazeologik va sintaktik ko‘rsatkichlar o‘zbek tilining semantik, stilistik va pragmatik imkoniyatlarini namoyon etadi. Kinoya fikrni bevosita emas, balki yashirin, obrazli va ta‘sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladigan muhim lingvistik hodisadir.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, leksik birliklar kinoyaviy ma'noni teskari baho orqali yuzaga chiqaradi, frazeologik birliklar esa uni obrazli va emotsional jihatdan kuchli ifodalaydi. Sintaktik ko'rsatkichlar, ayniqsa ritorik so'roq gaplar, savol shaklida berilsa-da, mazmunan tanqid, e'tiroz yoki istehzoni bildiradi.

Amaliy misollar asosida kinoyaviy ma'noning matn, nutq vaziyati va so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi aniqlandi. Shu sababli kinoyani to'g'ri anglashda til birliklarining lug'aviy ma'nosi bilan birga ularning pragmatik vazifasini ham hisobga olish zarur. Demak, kinoya o'zbek tilida nutq ta'sirchanligi va stilistik mahoratni ta'minlovchi muhim vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. A. O'zbek tili fonologiyasi va morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1992.
2. Ahmedov A. O'zbek tilida iboralar va ularning vazifalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998.
3. Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1989.
4. Karimov S. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1995.
6. Mengliyev B. O'zbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Nurmonov A. O'zbek tili grammatik qurilishi. – Toshkent: Fan, 2001.
8. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Buxoro, 2003.
9. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2017.
10. Yo'ldoshev B. O'zbek tili frazeologiyasining ma'no va strukturasi. – Toshkent: Fan, 2007